

**URGUT BOTANIKA-GEOGRAFIK RAYONIDA
SCUTELLARIA L. TURKUMI TURLARINING TARQALISHI VA
DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

Saydullayeva Iroda Saydullayevna

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti, Samarqand, O'zbekiston
e-mail: irodasaydullaeva0494@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada *Scutellaria L.* turkumining Samargand viloyati Urgut botanika-geografik rayonida tarqalgan turlariga oid materiallar keltirilgan. Materiallarda ushbu turlarning tarqalishi, dorivorlik xususiyatlari va xalq tabobatida qo'llash usullari adabiyotlar asosida o'rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ko'kamaron, oziq-ovqat, asalshira, dorivor o'simliklar, bir yillik, ko'p yillik, yarim buta, Yalpizdoshlar.

Аннотация. В статье представлены материалы, относящиеся к видам рода *Scutellaria L.* распространённым в Ургутском ботанико-географическом районе Самаркандской области. В материалах на основе литературы изучены и проанализированы распространение этих видов, лечебные свойства и способы применения в народной медицине.

Ключевые слова: Шлемник, пищевые, медоносные, лекарственные растения, однолетнее, многолетний, полукустарник, Яснотковые.

Annotation. The article presents materials related to species of the genus *Scutellaria L.* common in the Urgut botanical and geographical region of the Samarkand region. The literature-based materials study and analyze the distribution of these species, their medicinal properties, and methods of use in folk medicine.

Keywords: *Scutellaria L.*, food, honey plants, medicinal plants, annual, perennial, subshrub, Labiatae.

Insonlarning kasalliklarini davolashda turli xil profilaktika ishlari uchun dorivor o'simliklardan keng foydalaniladi. Ular nafaqat tabiiy, balki dorivor preparatlar holida ham qo'llaniladi. Hozirgi vaqda o'simlik xom-ashyosidan 40 % ga yaqin dori darmonlar ishlab chiqilmoqda. O'simlik preparatlari bir qator kasalliklarni davolashda yetakchi o'rinni egallaydi. O'simliklar xom-ashyosidan tayyorlanadigan preparatlar davolash amaliyotida keng qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega, chunki bunday preparatlar ko'pincha sintetikdan ko'ra samaraliroqdir. Dorivor o'simliklarning sintetik preparatlarga nisbatan afzalliklari shundaki, ular tarkibidagi moddalar kompleks ta'sir ko'rsatadi [1, 3]. O'zbekiston Respublikasi hududida 4380 ta yovvoyi o'simliklar o'sadi, ulardan 1200 ga yaqini shifobash xususiyatga ega bo'lib o'simlik dunyosining boy tur tarkibidan dalolat beradi [2].



a

b

1-rasm. *Scutellaria immaculata* Nevski ex Juz (a), *Scutellaria galericulata* L (b)

Yalpizdoshlar oilasi – Lamiaceae. Bu oila vakillari asosan bir yillik va ko'p yillik o't, yarim buta, kamdan-kam tropik mamlakatlarda o'sadigan buta va daraxtlardan iborat. Poyalari 4 qirrali. Barglari oddiy, qarama-qarshi joylashgan, yonbargchalari yo'q. Gullari simoz to'pgullarda o'rinishgan. Ular 3 gulli dixaziy yoki murakkab tuzilgan, qo'sh gajak to'pgullardan iborat. Gullari zigomorf (yalpizda to'g'ri gul), 5 bo'lakli, gulkosachasi 5 tishli, ba'zan 2 labli, ustki labi 3 bargchali, ostkisi 2 bargchali. Gultoji 5 bo'lakli, odatda 2 labli, ostkisi 3 toj bargli, ustkisi 2 toj bargli. Changchisi 4 ta. Changchi iplari gultoj nayiga birikkan. Urug'chisi 2 meva bargli. Tugunchasi ustki, 2 uyali, har bir uya 2 urug'kurtakli. Har qaysi urug'kurtak orasida barvaqt to'siq hosil bo'ladi. Natijada tuguncha 4 bo'lakchaga ajraladi. Gullari proterandriya, ya'ni changchi urug'chiga nisbatan tezroq yetiladi. Mevasi bir urug'li 4 ta yong'oqchaga ajraladi. Urug'i deyarli endospermasiz. Hasharotlar yordamida chetdan changlanadi.

Yalpizdoshlar oilasi filogenetik jihatidan tizimguldoshlar oilasiga juda yaqin turadi. Murtak ildizining pastga qaraganligi bilan farq qiladi. Yalpizdoshlar oilasining deyarli barcha vakillari efir moylariga boy. Ularda sut yo'llari va kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bo'lmaydi. Yalpizdoshlar eng yirik oilalardan biri bo'lib uning vakillari asosan issiq va mo'tadil iqlimli mamlakatlarda keng targalgan. Bu oilaga 200 tacha turkum, 3000 ga yaqin tur kiradi. O'rta Osiyoda 53 turkumga mansub 460 turi uchraydi [7].

Turlar soni bo'yicha Zarafshon tizmasining g'arbiy qismidagi flora Turkiston yoki Hisor tizmalarining G'arbiy qismidagi floradan ancha qashshoqroqdir. Bu esa qisman, bu yerning mutlaq balandligi sezilarli darajada past va baland tog'li turlar soni kamroq ekanligi bilan bog'liq. Biroq bu hudud mahalliy endomizmning eng muhim markazi hisoblanadi. Urgut botanika geografik hududida umumiy 1182 ta tur tarqalgan. Shundan *Scutellaria* L turkumga oid 7 turni o'z ichiga oladi (1-jadval).

1-jadval

Urgut botanika-geografik rayonidagi *Scutellaria* L turkumi turlari

N°	Lotincha	O'zbekcha	Ruscha
1	<i>Scutellaria comosa</i> Juz	Kokilli ko'kamonon	Шлемник хохлатый
2	<i>Scutellaria glabrata</i> Vved	Yalang'och ko'kamonon	Шлемник головатый
3	<i>Scutellaria immaculata</i> Nevski ex Juz	Dog'siz ko'kamonon	Шлемник незапятнанный
4	<i>Scutellaria intermedia</i> Popov	O'rta ko'kamonon	Шлемник средний

5	<i>Scutellaria leptosiphon</i> Nevski	Ingichka ustunchali ko'kamaron	Шлемник тонкотрубковый
6	<i>Scutellaria ramosissima</i> Popov	Shoxlangan ko'kamaron	Шлемник ветвистейший
7	<i>Scutellaria squarrosa</i> Nevski	Toptalgan ko'kamaron	Шлемник растопыренный



a

b

2-rasm. *Scutellaria intermedia* Popov (a), *Scutellaria ramosissima* Popov (b)

O'zbekistonda 42 turkumga oid 210 turi o'sadi. Yalpizdoshlar O'zbekistonda keng tarqalgan oilalardan bo'lib, ular foydali turlarga boyligi bilan boshqa oilalardan ajralib turadi. Ayniqsa, Yalpiz (*Mentha*), Marmarak (*Salvia*), Kiyiko't (*Ziziphora*), Bozulbang (*Lagochilus*), Tog'rayhon (*Origanum*), Limono't (*Melissa*), Arslonquloq (*Leonurus*), Ko'kamaron (*Scutellaria*) kabi turkumlarning vakillaridan juda qadimdan tibbiyotda, oziq-ovqat, qandolatchilikda va parfumeriya sanoatida foydalanib kelinmoqda [4]

Shu bilan birgalikda ko'kamaron turkumining ko'p turlari Urgut tumanida ham tarqalgan. Urgut botanika geografik rayonida ham tog' landshaftlari, ham ko'pchilik tog' o'simliklari uchraydi (alp tog'laridan tashqari) (2-jadval). Bu o'ziga xos flora ega bo'lgan juda ajoyib hudud.

2-jadval

***Scutellaria* L turkum turlarining Samarqand viloyatida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari**

N o	Turlar lotincha- o'zbekcha	Tarqalishi	Dorivorlik xususiyatlari
1	<i>Scutellaria botschantzevii</i> M.N. Abdull-Bochansev ko'kamaroni.	Oqtov, Pastki va o'rta tog' pog'onasi	
2	<i>Scutellaria comosa</i> Juz-Kokilli ko'kamaron	Pastki va o'rta tog' pog'onasi, Urgut, Nurota, Oqtov	
3	<i>Scutellaria galericulata</i> L-Qalpoqchali ko'kamaron	Pastki va o'rta tog' pog'onasi, O'rta Zarafshon,	Dorivor, efir moyli, bo'yoq beruvchi, asal shirali o'simlik
4	<i>Scutellaria glabrata</i> Vved-	O'rta	

	Yalang'och ko'kamoron	tog'pog'onasi, Urgut, Nurota	
5	<i>Scutellaria immaculata</i> Nevski ex Juz- Yog'siz ko'kamoron	Pastki va o'rta tog' pog'onasi, Urgut, Nurota, Oqtov, Zirabuloq- Ziyovuddin	
6	<i>Scutellaria intermedia</i> Popov- O'rta ko'kamoron	O'rta tog' pog'onasi, Urgut, Nurota	
7	<i>Scutellaria leptosiphon</i> Nevski- Ingichka ustunchali ko'kamaron	O'rta tog' pog'onasi, Urgut	
8	<i>Scutellaria oxystegia</i> Juz- O'tkir tangachali ko'kamaron	O'rta tog' pog'onasi, Nurota, Oqtov	Efir moyli, asal shirali
9	<i>Scutellaria ramosissima</i> Popov- Shoxlangan ko'kamoron	O'rta tog' pog'onasi, Nurota	
10	<i>Scutellaria squarrosa</i> Nevski- Toptalgan ko'kamoron	Pastki va o'rta tog' pog'onasi, Urgut	

Scutellaria L. turkumining ko'plab vakillari dorivorlik xususiyatiga ega. Ular orasida *Scutellaria baicalensis* alohida ahamiyatga ega.

Scutellaria baicalensis Georgi yoki Xitoy bosh suyagi ming yillar davomida Xitoyda dorivor o'simlik sifatida keng qo'llanilgan, bu yerda uning ildizlaridan tayyorlangan preparat Huang-Qin deb ataladi. U diareya, dizenteriya, gipertoniya, qon ketish, uyqusizlik, yallig'lanish va nafas olish yo'llari infeksiyalarini davolashda qo'llanilgan. O'simlik tarkibidagi flavonoidlarning turli xil farmakologik funksiyalari, jumladan, saratonga qarshi, antibakterial, antioksidant va neyroprotektiv ta'sirga ega [8].

Scutellaria L. turkum turlarida ko'plab kimyoviy birikmalarga boyligi tufayli u mikroblarga qarshi, antioksidant, fermentlarni faolligini oshiruvchi, yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi ahamiyatga ega bo'lgan turli xil farmakologik xususiyatlarga ega [9].



3-rasm. *Scutellaria leptosiphon* Nevski.



Shu bilan birgalikda Lamiaceae oilasining ko'p turlari Urgut tumanida ham tarqalgan. Urgut botanika geografik rayonida ham tog' landshaftlari, ham ko'pchilik tog' o'simliklari uchraydi (alp tog'laridan tashqari). Bu o'ziga xos floraga ega bo'lgan juda qiziqarli hudud hisoblanadi. Turlar soni bo'yicha Zarafshon tizmasining g'arbiy qismidagi flora Turkiston yoki Hisor tizmalarining G'arbiy qismidagi floradan ancha gashshoqroqdir. Bu esa qisman, bu yerning mutlaq balandligi sezilarli darajada past va baland tog'li turlar soni kamroq ekanligi bilan bog'liq [5, 6].

Xulosa qilib aytganda, *Scutellaria* L turkum turlari inson hayotidagi ahamiyati katta. Ular tibbiyotda, oziq-ovqat, sanoatda, texnika va bo'yoqchilikda ishlatiladi. *Scutellaria* L. turkumiga mansub, qalpoqchali ko'kamaron, yalong'och ko'kamaron kabi turlari tog' etaklari, tog'ning quyi va o'rta pog'onasi, Urgut, Zarafshon, Oqtov, Zirabuloq-Ziyovuddin, O'rta Zarafshon tog'larida tarqalgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кузьменко И.Н., Колясникова Н.Л. Лекарственные и ядовитые растения. Учебное пособие. Пермь: ИПЦ «Прокрость» - 104 с.
2. Умурзакова З.И., Мукумов И.У. Род *Elwendia* во флоре Кашкадарьинской области // Хоразм Мамун академияси ахборотномаси. Хива, 2022, 9/1, с. 130-135.
3. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Кодиров. У.Х., Батошов А.Р., Мирзалиева Д.У. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. - Ташкент: Издательство «Fan» АН РУз., 2018. - 220 с.
4. Кабулова Ф.Д., Расулов Д.У. О деградации тугайного леса в Зарафшанском заповеднике // Материалы республиканской научной конференции «Ботаника соҳасидаги илмий-амалий ютуқлар ва долзарб муаммолар». - Самарканд, 2014. - С. 54.
5. Бешко Н.Ю., Тожибаев К.Ш., Баташов А.Р., Азимова Д.Э. Ботанико-географическое районирование Узбекистана. Нуратинский и Кухистанский округа // Узб. биол. журн., 2014. - №3. - С. 30-34.
6. Пратов Ў., Шамсувалиева Л.А., Сулаймонов Э.С., Ахунов Х., Ибодов К., Махмудов В. Ботаника (морфология, анатомия, систематика, геоботаника). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Тошкент – «Таълим нашриёти» – 2010 -С. 231-233.
7. Qing Zhao Xiao-Ya Chen Cathie Martin. *Scutellaria baicalensis*, the golden herb from the garden of Chinese medicinal plants. Life & Medical Sciences. Sci. Bull. (2016) 61(18):1391–1398
8. Amanda Morgan and Brian Pearson. Florida Medicinal Garden Plants: Skullcap (*Scutellaria* spp.)1. ENH1300 doi.org/10.32473/edis-ep564-2018.